

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INTSITUTI.

“QALAM TASVIR” (Fanidan ma'ruzalar matni)

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriyat yo`nalishi:	5140700 – Tasviriy san'at va muqandislik grafikasi
Tuzuvchi:	o'qituvchi. K.X.Tog`ayev

NAVOIY-2010-2011

1-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari.

Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari. O'quv qalamtasviri mashg'ulotlari va ularning talabalarni qaqqoniy tasvirlashga o'rgatishdagi aqamiyati. Talabalarga chiziqli va fazoviy perspektiza to'g'risida tushuncha berish. Buyumlarni tasvirlashda chiziqli konstruktiv tuzilish, nur, soya, yarimsoya, tushuvchi soya, shaxsiy soya, buyumlarning qajmi va ularni to'g'ri tuslash, kompozitsiya asoslari kabi asosiy qonun-qomdzlarga o'rgatish. Taszirlash vositalari: qogoz turlari, qzlemlar, ko'mir, pastel, sangina, sous va boshqalarni ishga tayyorlash.

REJA:

1. Qalamtasvir to'g'risidagi eng muhim tushunchalar.
2. Zarur nazariy malumotlar orqali bilim berish. Kelajak amaliy mashg'ulotlar uchun zamin tayyorlash.
3. Akademik rasm chizish qonun-qoidalar Haqida ma'lumotlar berish.
4. Rasm chizishga zarur jihozlar bilan tanishtirish.

Adabiyotlar:

1. Risunok. Izdatelstvo «Iskusstvo» Moskva. 1965. (3-24 betlar).
2. K. N. Aksenov. Risunok. Moskva «Panorama» 1990. (13-20 betlar).
3. V. A. Yablonskiy. Prepodovanie predmetov «Risunok» i «Osnov! kompozitsii». Moskva. «Vyushaya shkola» 1983. (6-26 betlar).
4. B. Boymetov. Qalamtasvir. Pedagogoka institutlari va universitet talabalari uchun o'quv-qo'llanma. Toshkent. 1997. (2-9 betlar).
5. B. Tojiev. Qalamtasvir asoslarini o'rganish. (dastlabki saboqlar) Toshkent. 1994. (4-20 betlar).

MAVZUNING MATNI:

Tasviriy sanat har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallaydi. Shu sababli akademik surat ishlash bilimi tasviriy faoliyatning barchasida qo'l keladi, muvaffaqiyatni ta'minlaydi. qalamtasvir ishlashga va uni o'z manaviy hayotida foydalanishta odamlar qadimgi paytlardan oq intilib kelganlar. Shu sababdan ham rasm chizishning ma'lum qonun-qoidalari ishlab chiqilgan va yillar, asrlar mobaynida takomillashtirilib kelingan. qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi, negizi desak xato bo'lmaydi. O'quv-mashq vazifalarni puxta, ifodali qilib tasvirlay olish akademik rasm qonun-qoidalarini atroflicha ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. ular ish faoliyatini sifatli tashkil etilishiga ham ko'p tomondan bog'liqdir. Bundan tashqari chizishda ishlatiladigan asbob-anjomlar sifatli, talabga javob beradigan bo'lishi kerak. qalamtasvir ishlashning eng asosiy talabi chizish ob'ektini har tomonlama o'xshatib aks ettirishdab iborat faoliyatni ta'minlashdir. Buning uchun tasvirni qog'oz satHida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarini to'ri aniqlash, buyumlarning o'zaro masofasini va perspektiva holatlzrini aniq topish talab etiladi. Ishning

maqsadga muvofiq chiqishida albatta bilim, tajriba va mahorat etarli darajada kerak bo'ladi. Bilim o'qish, o'rganish, mutolaa qilish orqali orttirilsa, tajriba va mahorat ko'p ishlash, tinmay mashq), intilish evaziga orttirilishi ma'lum.

Ta'lim olishning yana bir muhim sharti har bir tasvir etiladigan narsa, hodisa, laihani aslidan, ya'ni naturadap qarab aks ettirilishiga juda bog'liq ekanligi sir emas. Chumki chizishdl hayot haqiqatini ko'rsata olish pifati eng muhimdir desak aslo yanglishmaymiz.

Tasvir chizishni o'rganish oddiy natyurmortlarpi, shuningdek alohida-alohida turgan buyumlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Ish tesvirni qog'ozga to'g'ri va chiroili tarzda joylailirishdan boshlanadi, so'ng har bir narsani o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlar aniqlildi. Bunda qalam engil, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak. Aks holda moto'g'ri chiqqan joylar va yordamchi chiziqlarni o'chirg'ich bilan ketkazish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'rtacha yumshoqlik darajasidagi «TM», «M», «2M» rusumli qalamlardan foydalanish apcha qulay.

Tasvirlarni ishlashda perspektiva qoidalariga amal qilinishi zarur.

Ma'lumki' har bir narsa boshqa narsadan uzoqroqda turgan bo'lsa, u ko'zimizga kichrayib ko'rinadi, tarxlari ham hiraroq bo'ladi, unga tushayotgan yorug'lik, soyalar ham birinchi plandagi buyumnikidan farqlanib turadi. Bularning hammasi chiziqli va havo perspektivasi hodisasining tabiatda namoyon bo'lishidir. Ana shu jiatdan to'g'ri aks ettirilsa tasvir Haqqoniy chiqishi ta'minlanadi. har bir narsa qog'ozda tasvirlanar ekan, albatta uning turishiga nisbagam ufq chizig'i topib olinishi kerak. U chizuvchi kishining ko'zi balandligidan o'tuvchi tasapvur etiladmngan gorizental to'g'ri chiziqni tashkil etadi.

Natyurmortlarda uni to'g'ri aiiqlab olib tasvir yaragishd! foydalanish zarur shartlardan asosiysi bo'lib, tasvirning haqqoniy chiqishni ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizental satHga va vertikal kartina saghiga nisbatan holati ham perspektiva ko'rinishiga muvofiq topiladi. Bunda tomonlarning qisqarib, uzoqlashib borgan sari qisqarib ko'rinishi ufqning tutashish nuqtasiga asosan topib chiziladi.

Tasvir yaratishda fazoviy perspektivaga ham ahamiyat berilishi zarur. Chunki yaqinda joylashib turgan buyum uzoqroqdagisidan tusi, rangi, to'q-ochligi bilan ajralib turadi. Soya-yorug'liklarni tasvir tarxlariga monand o'xshatib aks ettirish ular o'rmini to'fi mutanosib topishga ham bog'liqligini uiutmasligimiz kerak.

Natyurmortlarda manzara tasvirlariga nisbatan perspektiva qoidalarini qo'llash murakkabroq, chunki buyumlar, narsalar orasidagi farq, masofalar kamroq bo'lib, ular diqqat bilan kuzatilib aniqlanadi. Manzara, tabiatdagi perspektiva esa yaqqolroq seziladi. Masalan, tekis yo'nalgan temir yo'lni kuzatsak bu hodisa aniq ko'rinadi. Undagi relslar uzoqlashgan sari bir-biriga yaqinlashib, ufqqa borib birlashib, nuqta bo'lib ikki tomondagi sim yog'ochlar tobora kaltalashib borayotgandek tuyulishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu hodisani kuzatib perspektiva qonuniyatlarini anglab olish, tahlil qilish, tegishli bilimlarni olish mumkin.

Rasm chizish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etilishi tasvir yaratishning eng muhim pedagogik hajmiga. ifodasiga ham, har bir narsaning o'zi mavjud

bo'lib turgan atrof muhitiga ham ob'ektiv tarzda yoidoshilishi haqqoniy tasvirlanishi kerak.

Savollar:

1. Qalamtasvir nima?
2. Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari nimalardan iborat?
3. Rasm chizishda qanday jihozlardan foydalaniladi?

Tayanch tushunchalari:

O'quv qalamtasviri - chizishni o'rganish maqsadida, uzoq vaqt mobaynida ishlanadigan qalamtasvir.

Chiziqli perspektiva - qarab turgan odamg'l nisbatan tomonlari kichrayib (o'lchash) ko'rlnaetgan predmetni fazoviy holatini chiziqlarda perspektiva qonun-qoidalariga asoslanib tasvirlash.

Fazoviy perspektiva - narsalarning bir-biriga nisbatan uzoq yaqinligiga qarab rang-tussiz, garxinipg tiniq yoki xioa bo'lib ko'rinishi.

Ko'mir - yog'och tayoqchalarini kuydirish yo'li bilan tayyorlanadigan, tasvirlar chizish uchun mo'ljallangan qalamchalar.

Pastel - bo'yoq kukuniga elim aralashtirib tayyorlangan rangli qalamlg.r (g'ilof qoplamasiz).

Sangina - mineral bo'eq kukunidan zpchlab tayyorlangan g'ilofsiz qalam, rangli jigarrang va qizg'imtirlari bo'ladi, gasvirlzr ishlaganda bazan bo'r bilan qo'shib (yorqin erni aks ettirish uchun) foidalaniladi.

Sous - zichlangan bo'yoq kukunidan tayyorlanadp, rangi qora bo'ladi, quruq holda va suvda eritib xam ishlatish mumkin, oq-qora tasvirlar ishlashda qo'llanadi-

Akademik rasm - o'rganish niyatida bajariladigan mukammal qalam tasvir.

Natura - narsaning asli.

2-MA'RUZA. 4 SOAT.

MAVZU: Intererda inson qomatining turli holatlardagi qalamchizgilari. Turli tasvirlash sositalari orqali talabalarga qalamchizgilar bajarishni o'rgatish (yumshoq qalam, retush, pastel, sous, sangina, tuslangan qog'ozlar va boshqalar). Turli yushmoq tasvirlash vositalari bilan inson qomagining har xil holatlaridagi xarakterli xususiyatlariii tez muddatda bajarishga o'rgatish.

REJA:

I. qalzmchizgilar yaragishpish turlari, turfa yo'llari, uoullari texnologig`1si xususidg) nazariy tushunchalarni berish.

2. Malaka, maHoragni shakllzntirish yo'llarini o'rgatish.

3. Har xil tasvirlash vosigalarini qo'llashni, tadbqiq etishni nazariy jiHaglarini ilmiy asoslarini, bilimini berish.

Adabiyotlar:

1. K.N.Aksenov. Risunok. Moskva. «Panorama» 1990. (27-35 betlar).

2. Risunok. Izdatelstvo «Iskusstvo» Moskva. 1965. (90-100. 144-157 betlar).

3. A.E.Terentev. Risunok v pedpogicheskoy praktike uchitelya izobrazitel'nogo iskusstva. Moskva. «ProsveHenie» 1981, (43-48 betlar).

4. B.Tojiev. qalamtasvir asoslarini o'rganish. (dastlabki saboqlar) Toshkent. 1994. (20-30 betlar).

MAVZUNING MATNI:

Tasvirlarni chizishda, xoh u natyumort bo'lsin, xoh odam tasviri, yoki manzara bo'lsin, barchasida aks ettirishning turli-tuman vositalari va usullaridan unumli foydalanilish kerak. Bunday yo'l tutish bilimni, mahoratni, tajribani oshirishga xizmat qiladi.

Odam qiyofasini chizishni o'rganish jarayonida grafik uslublarni qo'llash esa eng sinalgan yo'ldir. Chunki eng qulay va tez bajariladigan har xil ashyolar (qalam, sangina, sous, pastel retush va boshqalar) erdamida amalga oshiriladigan tasvir ainiqsa qiziqarli chiqadi. Bunday qalamchizgilarii ishlaganda rangli (tus berilgan) qog'ozlardan foydalanish o'quv-mashq ishlarining badiiyligi darajasini ham oshiradi. Voqelikni obrazli ifoda etish omili bo'lib xizmat qiladi.

Intererdagi odam qiyofasini tezlavhalarni turli holatlarda tasvirlashda atrof muhitning ko'rinishi ham etiborga olinishi kerak. Yorug'lik manbaining qaysi tomondaligi chizilayotgan ob'ektning naqadar hajmli va bo'rtiq tasvirlanishda rol o'ynaydi. Shu sababli ish o'quv mashq sifatida bajarilayotganligidan qat'iy nazar jiddiy e'tiborli yondashuvni talab etadi.

Ma'lumki, odamni tasvirlashni o'rganishda uni tezlikda chizish mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mashq vazifalar kichikroq qog'ozlarda, so'ngra kattaroq qog'ozlarda bajarilishi maqsadga muvofiq. Kichik-kichik qalamchizgilar ko'pincha yumshoqroq oddiy qalamda, kattaroq tasvirlar esa iloji boricha kumir qalamchalari, retush, sangina, sous va lastelda ishlansa qulay bo'ladi. Buning sababi ularning ishlatilishi qulayligidadir. Bunday vositalar bilan tezkorlikda katta sathlarda ifodali tasvirlar ishlash mumkin. Ammo bu ularni ishlatish oson ekan degan tushunchani tug'dirmasligi kerak. Masalan. retush qalami o'ta qora bo'lganligi uchun uni rangli, ya'ni biror xolis tus berilgan qog'oyaga rzsm solishda ishlatish mumkin. Oppoq qog'oz sathida undlm foydalanish Incha tajriba va mahoratni talab etadi. Ayniqsa tezksr qalamlapHalarni chizglida rstush juda qulay bo'lib, kerakli joylarda chiziqtarxlsrimi qo'l barmoqlari rangli qog'oz parchasi bilan surkatib tasvirlanayotgan qilib narsaning soya, hatto yarimsoyalarini juda ifodali va chiroyli qilib ko'rsatish imkoniyati bor.

Rangli qog'ozda ishlanganda rotush qalami va ko'mir qalamchalerini oq rangli pastel eki bo'r bilan aralash texnikada ishlatish yaxshi samara beradi.

Ma'lumki, sousni suvga qorib mo'yqalam da qogozga surtib tus berilsa, so'ngra tasvirni retush qalamida ishlansa, o'chirg'ichdan ham unumli, bilib foydalanilsa har qanday o'quv-mashq vazifani namunalig va chiroyli qilib chiqarish mumkin. Tasvirning eng yorug' qismlarini o'chirg'ich yordamida ustalik bilan o'chirib bo'rttirilsa,

Eng to'q soyalarning sathi quyuq, qora sous bilan bo'yab yopilsa ish hajm tomondan juda fazoviylik kasb etadi.

Sangina qalamtasvirlarni ishlashda qo'llanilishi ham foydali. U bilan har qanday tasvirni tez va ifodali qilib chiqarsa bo'ladi. Faqat buning uchun uing texnikasini egallash kerak.

Ma'lumki, sanginaning to'q jigarrang hamda qizg'imtir jigarraig turlari bo'ladi. Ularni ham tus bsrilgan oxrasimon rangli qogozlarda unumli qo'llash mumkii. Sanginani surkatib soyalarning katta-katta qismlarini yopish imkoniyati ham borligi ish rivojini gezashtiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha tasvirlash vositalarini uzok, muddatda bajariladigan, hamda gezkorlik bilan ishl shadigan qalamtasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin.

Odam qomatini turli holatlarda. vaziyatlarda harakagli ko'rinishlarda interer muHiti sharoitida tasvirlash ancha murakkab vazifalardan hisoblanadi. Agar ular tez muddlgda ishlanishi kerak bo'lsa, tezchizgi lavhalari ko'rinishida bo'lsa, bir nechta tasvirni bitta qog'oz sathida chiroyli kompozitsiyada joylashtirib bajarish ko'p samara beradi. Chunki bunda har bir chizilgan har turli holetlarda turgan odamlar qiyofasi o'zaro solishtirib ishlanadi, o'lchamlari bir-biriga moslanadi va shuning nagijasida tasvirlar guruhi bog'langan mazmun kasb etib badiiy ko'rinishga ega bo'ladi.

Insop qaddi-qomatini chizishga albatta tezkor tasvirlar ishlash. ko'proq mashq qilish talab etiladi. Ayniqsa suratnin! qismlzri nisbatlari, katta shaklning yaxlitligiga e'tibor qaratilishi kerak. So'ng tana holati uning qanday harakat holatida namoyon bo'laetganligi muHim bo'lib, uni to'g'ri topish va aks ettirish kerak.

Yuqorida aytilgan barcha holatlarda nazariy va amaliy tomondan yaxshi o'rganilsa, kitoblar maxsus adabiyotlar mutolaasiga e'tibor berilsa har qanday quntli talaba uning oldiga qo'yilgan murakkab vazifalarning barchasini muvaffaqiyatli ado etadi. Yaxshi, a'lo natijalarga erishadi.

Savollar:

1. Rasm chizishda qanday tasvirlash vositalari, ashyolari qo'llanadiq
2. Intererdagi odamni chizishda ko'proq nimalarga aHamiyat berish zarurq
3. Chizishda odam qomati o'lchamlari qanday topiladiq

Tayanch tushunchalar:

Interer (frants) - binolarning ichki qismi.

Retush - chizishda iillatiladigan maxsus, sifatli ko'mir qalam, №1, №2 xillari bo'ladi, yumshoqli! i bo'yicha farq qiladi.

Natyurmort - taseirlash maqsadida jamlab qo'yilgan turli buyumlar yikmasi, o'quv-mashq qo'yilmasi.

Grafik uslub - qalamda, qora-oq tasvirga asoslangan Holda bajarish yo'li (chiziqlar vositasida).

TezlavHa - qalamda; yoki rangda tezkorlik bilan bajariladigan, tasvir (dastlabki taassurot asosida ishlanadi).

Obekt - chizilayotgan narsalarning tabiagdagi asli.

qalamchizgi - biroz mukammalroq, ammo gezlik bilan ishlagan tugzllanmagan qalamsurat (zarisonka).

Tus - narsaning rang hamda tusipi och-to'qlik darajasini bildiruvchi tushuncha.

3-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Badiiy ta'liglda qalamchizgilarping ahamiyati.

Hayvon va qushlgrning anatomik tuzilish xususiyatlari Hamda ularning qalamchizgilor vositasida tasvirlash usullari. Odam bosh suyagining tuzilishi xdqida dastlabki ma'lumotlar. Bosh suyagini bosqichlarida to'g'ri tasvirlash metodlari. O'quvchi yoshlarga tez qalamchizgilar chizdirishni o'rgatish ork.ali tabiatdagi barcha shakl va buyumlarni haqqoniy tasvirlashga o'rgatish, qalamchizgilar bajarishda turli yumshoq tasvirlash vositaleridan foydalanish malakalarini oshirish.

REJA:

1. Badiiy ta'lim asoslari haqida ma'lumotlar berish. Unda qalamchizgilarning ahamiyatini, tutgan muhim o'rpini uqtirish.
2. Atrof muhitdagi, xususan qushlarning va boshqa narsalarning tuzilishidagi o'xshashliklar va fikrlarni ta'kidlash, tushungirish.
3. Odam bosh suyagini chizishdagi bosqichlarni ketma-kegligi masalalarini o'rgatish.
4. Tasvirlashning turli vositalari Haqida malumotlar berish.

Adabiyotlar:

1. V.S.Kuzin. Nabroski i zarisovki. Moskva. «Prosoesh,enie» 1981. (117-126 betlar).
2. Risunok. Izdatelstvo "Iskusstvo» Moskva. 1965. (100-118 betlar).
3. K.N.Aksyonov. Risunok. Moskva. «Panorama» 1990. (97-128 betlar).
4. B.Boymetov. qalamtaspir o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. Toshkent 1995. (3-18 betlar).

MAVZUNING MATNI

Badiiy ta'lim va umuman tasviriy sanat sohasida qalamchizgilarning ahamiyati naqadar katta ekanligini rassomchilikka qiziquvchi har bir inson yaxshi biladi. Bo'lajak o'qituvchi-musavvir nafaqat amaliy ishni, balki nazariy masalalarni ham puxta o'zlashtirishi zarur bo'ladi. U qalamtasvir yaratishning muhim ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntira bilishi kerak. Bunda albatta u kitob, qo'llanmalardan foydalanadi. Ularda esa rasm chizishning barcha qonun-qoidalari tushungirib berilgan.

Malumki, qalamtasvirning muhim chizish qoidalari qadim zamonlardan kashf etilib, takomillashtirilib kelingan. Aytishlaricha birinchi gashkil etilgan ilk Badiiy akademiyalardan rasmni qalamda chizish etakchi o'ringa qo'yilgan. Uni yaxshilab o'rganib olmagan talabz tasvirga rang berish mashg'ulotiga, yani rangtasvir yaratish ishiga yaqinlashtirilmagan. Shu sababdan akademik rasm chizish mashg'uloti muhim hisoblanib o'quv-ta'lim jarayoning ko'p qismini egallagan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi qush va hayvonlarning tasvirini chizishni ham boshqa vazifalar qatorida puxta o'rganishi kerak. Chunki maktab amaliyotida, o'qitish, o'rgatish dasturlarining barchasida bu mavzu mavjuddir.

Animalistik (jonli tabiat, hayvon va qushlarni aks ettirish sohasi) rasmlar ishlash tasviriyl san'atning juda qiziqarli sohasidir. U ko'pincha turli voqeaband kompozitsiyalar, kitob bezaklari yaratilishida foydalaniladi. Ayniqsa bolalar uchun chiqariladigan adabiyotlarda qo'l keladi.

Mamlakatimiz va chet el rassomlari ijodida ham animalistik mavzularni ko'plab uchratamiz. qadimgi usta rassomlardan Dyurening, Rembrandtning, Delakruaning Hayvonlar va qushlarni aks ettirgan qalamchizgilarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yaponiyaning qadimiy tasviriyl san'atiga oid namunalarda Ham qush va gurli jonivorlarning ajoyib-ajoyib tasvirlar ko'p uchraydi. Rus animalisg rassomlari P.Sokolov, V.Serov, A.Stepanov, I.Efimov, V.Vatagii grafik ishlarida ham jonzodlar tasvirining yaxshi namunalari bor. O'zbekiston rassomlari ijodida ayniqsa grafika va Haykaltaroshlik sohasida bu mavzudagi ijod namunalari uchraydi. Masalan, T.Esonov, P.Ivanov, T.Tojixo'jaev, A.Boymltov na boshqa Haykaltaroshlar, shupingdek X.Rahmatullaev, A.G'ulomov, Q.Basharov kabi bir qator grafik rassomllari asarlarida bu mavzuga oid ijod namunalari mavjud.

Rangtasvirda asar yaratuvchillr orasida aiimalistik mavzudagi namunalarning mualliflarn sifatida M.Toshmurodov va Q.Akbarovni ko'rsatishimiz mumkin.

qush va hayvonllrning tulumlarini rasmini chizish tirik jonzotlarni tasvirlashdan avvalgi bosqichdir. desak yanglishmaymiz. Chunki harakatdagi jonivorlarni chizish ancha murakkab bo'lib, bu ishni boshlashdan avval puxta tayyorgarlikni o'tash kerak. Shunda tulumlarni batafsil o'rganish ancha qo'l keladi. Ular orqali hayvon va qushlarning.skeleti va tana tuzilishi xususiyatlari tahlil qilinib o'rgailadi. O'ziga xos o'lchamlari, ularning yaxlitligi, mutanosibliklari chizish-tasvirlash jarayonida aniqlanadi, ifodalanadi. Agar shunday maqsad qo'yilgan bo'lsa hajmi ham ishlab aks ettirilady. Yana bir muhim tomoni shundaki, qush yoki

hayvonning rasmini chizganda shakldan tashqari uning ichki sinch tuzilishini belgilovchi umrtqa pog'onalari va boshqa suyak bo'ginlariga ham ahamiyat berilishi kerak.

Tasvirning soyaga va yorug'ligini ko'rsatish uchun turli tasvirlash vositalaridan unumli foydalanish mumkin. Ular chiziqlarni turli yo'nalishlarda yo'naltirib ishlov berishga imkon beradi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki qushlarni va turli jonivorlarni chizishdan avval ularning skeletini qanday tuzilishga ega ekanligini bilib olish, mavjud bo'lsa skeletini alohida tasvirlab mashq qilish kerak.

Odam boshini chizishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan narsa uning asosi, ya'ni bosh chanoq suyagidir. Uning gipsdan gayorlangan namunasini chizib mashq qilish ancha foydali bo'lib, hamma qismlari yaxlit ko'rinib turadi. Bosh suyagini chizishga gips namunali o'rganib olgach kirishish mumkin. Bunda iloji boricha uchta turli tomondan, gurli holatlarda ko'ringan vaziyatdagi bosh chanog'i bitta yaxlit qog'oz sathida tasvirlanishi shart.

Chanoq ikkita asosiy qismdan tarkib topgan bo'lib, ular miya qismi va yuz qismlaridir. Miya qismi o'z navbatida chakka, peshona, ensa bo'laklaridan iborat. Ular va boshqa mayda ichki qismlar o'zaro tishsimon bo'rtma ulanmalar bilan birikib turadi. Suyakning peshona qismi bosh shakliii belgilab turuvchi ahamiyatga

ega. Bundan tashqari yonoq, burun bo'rtmasi ham inson yuzining shaklini qanday bo'lishida muhim rol o'ynaydi. qisqa qilib aytganda bosh chanoq suyagining barcha maydon bo'laklari uning qanday nomlanishini talaba o'rganib, plastik aiatomiyasiga oid kitoblarni mutolaa qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bosh suyagini to'g'ridan, yondan va burchak ostidan ko'rinishini bitta qog'ozda bir paytda ishlab navbatma-navbat ishlov berilsa uni o'rganish qulay bo'ladi. Asosiy ko'p davom ettiriladigan qalamsuratni ishlashdan avval albatta kichik qoralamalar chizish shart. Shunda har bir tasvirni o'zaro muvofiqlashtirib kompozitsiyasini topish engil ko'chadi.

Savollar:

1. Hayvon va qushlarning tasvirini ishlashda nimalarga amal qilinadi?
2. Odam va boshqa jonivorlar skeleti tuzilishidagi o'xshashliklari va ularni chizishda qanday mutanosibliklar mavjud?
3. Nima uchun qush va hayvonlarning tulumlari chiziladi?
4. Odam bosh chanoq suyagi qanday qismlardan iborat. ularning rasm chizish mashqlarida tasvirlashdagi ahamiyati nimada?

Tayanch tushunchalari:

Anatomik tuzilishi - ichki tuzilishi.

Animalistik (lotin «agntal»-Hayvon) - Hayvon tasvirlari ishlangan asar, suratlar.

Tulum - qush yoki Hayvon tanasiga maxsus ishlov berib quritib tayyorlangan namuna (chizishda va ko'rgazmali qurol sifatida foydalanildi)

Skelet - insonning suyaklar tizimi majmui.

Gips - ganch, tabiiy mineral modda, qurishda, Haykaltaroshlikda, xalq amaliy bezak san'atidz foydalaniladi, chizish uchun namunalar Ham gipsdan yasaladi.

Chanoq - bosh suyagi.

Plastik anatomiya - odamning tanasi xususiyatlari tuzilishi, shakl tamoyili (suyaklari, mushaklari, va xokazo)ni tasvirlash, o'rganish maqsadida o'qitiladigan fan.

4-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Inson bosh suyagining anatomik tuzilishi. Bosh suyagi yuz qismi bo'laklarining o'ziga xosligi. Bosh suyagi yuqori sharsimsn qismining shakli va tuzilishi. Uning yuz qismp bo'lagi qamda pastki jag' bilan birlashuvi.

REJA:

1.Talabalarni inson boshini chizish jarayonpga tayyorlash. Portret ishlashdan avval odam bosh chanog'ining o'ziga xos shakli va xususiyatlariga etibor berishga o'rgatish.

2. Bosh suyagini chizish paytida nimalarga asoslanish kerakligini uqtirish. Amaliy mashqlar jarayoniga tayyorgarlik va uni olib borishga tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Risunok. Izdatelstvo «Iskusstvo» Moskva. 1965. (118-125 betlar).
2. K.N.Aksyonov. Risunok. Moskva «Panorama» 1990. (90-110 betlar).

MAVZUNING MATNI:

Ilgari ma'ruzalarda takidlanganidek har bir narsani chizishning o'ziga xos amallari, qonun-qoidolari bor. Inson tasvirini chizishning eng muhim sharti esa uning suyak tuzilishi xususiyatlarini mukammal egallab olishdan iborat ekanligi sir emas. Malumki, odam tasvirini o'rganish ikki katta bosqichga bo'linadi. Ular Odamning boshi alohida, hamda butun gavda bilan tasvirlashdan iboratdir. Albatta o'rganishda birinchi navbatda boshni chizishni o'rganish turadi. Buning uchun uning asosi tuzilishini bilib olinishi zarur. Asos esa bosh suyagini tashkil qiladi. Uni mukammal bilib, tasvirlashni o'rganib olish kelajak muvaffaqiyatlarning garovi bo'la oladi. Buning uchun bosh suyak nimalardan iborat ekanligini tahlil qilaylik. Ularning nomlari quyidagicha, yani-peshona suyagi, peshona do'ngliklari, qosh usti yoylari, ensa chuqurligi chegaralovchi chiziqning boshlanishi, yonoq suyaklari, yonoq suyagi yoyi, ustki jag', pastki jag, bo'rtmasi, ensa suyagi, ponasimon suyak, so'rgichsimon o'simta, miya usti suyagi. Bu aygib o'tilgan bosh suyak qismlari bo'lib, ular o'zaro ulanmalar bilan mustahkam birikib turadi. Faqat yuqori va pastki jag' suyaklari harakatchan bo'lib ularni mustahkam o'zaro ushlanib turishida inson yuzi mushaklari katta rol o'ynaydi.

Malumki, odamning boshi va uning yuzi qanday ko'rinishga ega bo'lishi suyak hamda mushaklarning shakli-shamoyiligi bog'liq. Buning uchun suyaklarnigina emas, balki mushaklarning ularga qanday birikib turishi va ish faoliyatini ham o'rganib olinishi kerak. Masalan bosh suyagining kagta shakli bazan yumaloqsimon, bazan tuxumsimon, bazan esa to'rtburchak, rombsimon va hokazo shakllarga moyil bo'lishi mumkin. Shu holatlar odam tasvirini ishlash jarayonida keyinchalik albatta etiborga olinsa, yoddan chiqarilmasa tasvir aniqligiga erishish osonlashadi. Suyaklar qay darajada bo'rtiq ekanligini yaxshi anglab shaklni to'g'ri tasvirlash uchun bosh suyagining tasvirini yaxlit bitta katta qog'oz sathida uch tomondan ko'rinishda yonma-yon ishlash talab qilinadi.

Tasvirni chizish paytida bosh chanoq suyagi qismlarining o'zaro joylashishi, shakli, o'lcham va mutanosibliklari e'tiborda tutilishi kerak. Ortiqcha soyalarni berib, hajmi, fazoviy ko'rinishiga ortiqcha ishlov bermasdan uning ichki tuzilishi (sinchi)ga urg'u berib, iloji boricha chiziqlar, o'q chiziqlar yordamida aks ettirilishi maqsadga muvofiq keladi. Bosh suyakning tabiiy aslidan chizish bilan birgalikda gips namunani Ham navbati bilan tasvirlab mashq qilish samara beruvchi omillardandir. Chunki gips namunada ko'z soqqa chuqurliklari, burun teshiklari yaxlit bo'lib ko'rinadi, bundan tashqari massa oq rangli bo'lgani uchun soyalar ham ortiqcha qora, to'q bo'lib ko'rinmaydi. Tasvirlashga ortiqcha vaqt sarf etilmaydi.

Qoidaga asosan bosh chanog'i chizib mashq qilib, o'zlashtirib olingan, odam boshining mushaklari ham chizib o'rganilishi kerak. Buning uchun ularni tuzilishini ko'rsatuvchi maxsus namuna «ekorshe»ni tasvirlab mashq qilish samarali bo'ladi.

Endi inson boshining mushaklarining nomini sanab o'taylik. Ular quyidagi tartibdadir: yani-peshona mushagi, ensa mushagi, qovoqlarning aylanma muskullari, umumiy ichki mushak, burun qanotlaripi kengaytiruvchi mushaklar, burunning ko'ndplang yoki uchburchakli muskullari, piramidasimon mushak, katta va kichik yonoq mushaklari, chaynoa mushaklpri, yuqori labni va burun qanoti ko'taruichi muskullar, og'isping aylanma mushagi, kulgi mushagi, pastki labning uchburchakli mushagi, pastki labning tushiruvchi mushat, ilk (daxan) muskuli, to'sh-o'mroi-so'rgichsimon mushaklar, «kadik» yoki Adam olmasi, ko'krak-tilosti mushagi, trapetsasimoi mushak. Bu barcha keltirib o'tganlarimiz odam boshi va bo'yin qismining shakl-shamoyilini belgilashda katta ahamiyatga egadir. Ular boshning, yuz qiyoflsining qanday ko'rinishiga tasir etadi, cheHraning tashqi tomonini belgilashda xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan barcha chizish bosqichlari ustida yani, bosh chanog'i suyagi, uning muskul tizimi, hamda maxsus namuna «ekorshe»ni chizish bo'yicha mashqlarni izchil olib borish odam tasvirini chiza olish qobiliyatini oshirishning omili bo'lib xizmat qiladi.

Savollar:

1. Rasm (portret) chizishda kalla suyagining qanday qism, bo'laklari kuproq bo'rttirib ko'rsatilishi kerakq
2. Inson bosh qismini mushaklari nechta, chizmatasvirda ularni to'g'ri aks ettirishda nimalarga amal qilishi lozim.

Tayanch tushunchalar

Portret - malum bir kishi qiyofasini aks ettiruvchi surat, asar, taoviriy san'at janrlaridan biri.

Romb - tomonlarining o'lchamlari turlicha bo'lgan to'rt burchak shakl.

Mutanosib - tasvir obektining yoki tasvirning turli qismlarini o'zaro bog'lanib (o'lchash. rangli, tuzilishi jiHatidan) go'zallik mezoniga mos bo'lishi.

Hajm - narsaning uch o'lchamda (fazoviy bo'lib) bo'rgib ko'rinayotgan shakl-shamoyili.

Ekorshe - inson tanasi ko'rinishini chizish uchun, o'rganish uchun maxsus tayyorlangan haykal namunalari.

5-MA'RUZA. 4 SOAT.

MAVZU: Intererning qalamatasviri (ko'mir, qalam va boshq.) Tasvirni qog'oz sirtida to'g'ri joylashtirish. Tasvirda fazoviy holatni aks ettirish orqali chiziqli perspektiva qonunlarini o'rganish. Birinchi, ikkinchi qatorda joylashgan xona jiqozlarini to'g'ri tushlash.

REJA:

1. O'quv vazifani to'g'ri bajarishga talaba yoshlarni tayyorlash.
2. Perspektiva qonun-qoidalarini qalamtasvir chizishda qo'llashni intererni tasvirlash jarayonida o'rgatish. Perspektivaning eng muhim tamoyillari haqida atroflicha tushunchalar berish. Chiziqli va fazo perspektivasining o'zaro bog'liqligi masalalarini yoritib, uni ishda foydalanishga o'rgatish.

Adabiyotlar:

1. A.P.Barshnikov. Perspektiva. «Iskusstvo» Moskva. 1955. (5-14. 15-24 betlar).

2. V.S.Kuzin. Nabroski i zarisovki. Moskva «Prosvesh,enie» 1981. (101-106 betlar).

3. K.N.Aksenov. Risunok. Moskva «Panorama» 1990 (27-47 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Ilgari natyurmort ishlash to'g'risidagi mavzuga oid ma'ruzalarimizdan bilasizki, perspektiva qonun-qoidalari Haqidagi bilimlar har qanday tasvirni ishlashda zarur bo'ladi. Jumladan intererni chizish mashqlarida u juda muqim ahamiyat kasb etadi. Chunki xona ichki ko'rinishini yoki uning bir qismi bo'lagini aks ettirish natyurmortlarda ham portret kompozitsiyalarida ham, mavzuli voqeaband kompozitsiyalarda ham tez-tez uchrab turadi.

Ma'lumki, xona ichida tasvirlash kerak bo'lgan har bir narsa intererda unga bog'liq holda mavjuddir. Shu sabab xona ichki ko'rinishini qanday ishlanishi puxta o'rganib olishni taqazo etadi.

Interer tasvirini chizish albatta o'quv-mashq vazifani bajarish uchun qulay ko'rinishga ega bo'lgan xonada amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Undagi jihoz va narsalar ham ahamiyatli, Chunki dastlabki mashqlarda xona ichidagi buyumlar ko'p bo'lishi ishni qiyinlashtiradi. Ishni dastlab kichik-kichik qoralama tasvirlar ishlab ko'rishdan boshlash kerak.

Perspektivaga asoslangan tasvirni bajarish ma'lum o'lchamdagi qog'ozni belgilab tanlashdan boshlaydi. Shu qog'oz kartina tekisligi (sathi) deb ataladi. Kartina tekisligi nima ekanligini tasavvur qilish uchun chizilayotgan narsaga oyna orqali qarab ko'rish kifoya. Agar biz shu oynada ko'rinayotgan narsalarni tush bilan chizib chiqsak, ularning perspektiv holatining tasvirini olamiz. Bu holatda oyna kartina sathi yoki kartina deb ataladi. Ma'lumki rasmni kartina satqida aks ettirish uchun kirishilar ekan, uning koordinatalarini belgilab olinadi. So'ngra perspektiva ko'riladi. Bu koordinatalarda biri ufq chizig'i hisoblanadi. Ufq chizig'ida qarash nuqtasi belgilab olinadi. Chizish nuqtasi topiladi. Asosiy perpendikulyar chiziq tortiladi. Kartina tekisligidagi ufq chizig'i ko'rish nuqtasining balandligi yordamida belgilanadi. Asosiy perpendikulyar chizig'i esa ko'rish tekisligidan o'tadi. Uning yordamida perspektivani tasvirlaymiz.

Perspektivadagi tasvirni ko'rishda biz bu ob'ektlarni frontal holatda yoki bo'lmasa kartinaga nisbatan burchak ostida ko'ramiz. Kartinaga nisbatan parallel joylashgan sathlar frontal qisoblanadi. Birinchi holatdagi perspektivani biz frontal, ikkinchi qolatini burchakli deb ataymiz. Perspektiva ko'rilishi shu ikki yo'ldan birida aniqlanadi va tasvirlanadi.

Interer qalamatasvirni har turli tasvirlash vositalari bilan ishlash mumkin. Uni qalamda, sanginada, ko'mir tayoqchalarda va nihoyat sousda ham muvaffaqiyatli bajarib yuksak natijalarga erishish mumkin. Buning uchun har bir materialning imkoniyatlarini chamalab bilib olish, so'ng tajriba qilib foydalanib ko'rish kerak. Kichik hajmdagi tasvirlar, chizgilar uchun albatta oddiy qora grafik qalamdan afzali yo'q. Ammo uzoq muddatli ham chiziqlar, ham tus berib, soya yorug'liklarini ishlab chiqiladigan, fazoviy holatlarni namoyon etadigan ishda sous va retush qalamni, shuningdek ko'mir qalamchalzriing o'rnini hech nima bosa olmaydi. Asosiy ishda avval yordamchi chiziqlarning engil izlari bilan tarxlar aniqlanib, so'ngra uning shakl, hajm masalalariga o'tiladi. Bunda intererdagi xona

devorlari ularning qaysi qismi ko'rinsa yaxshi tasvirga, kompozitsiya qurilishiga erishish mumkinligi hisobga olinishi zarur.

Chizilgan odamning ko'z qarashi balandligi ham gabiiki katta rol o'ynadi. Bu xonadagi buyumlarning qanday tarzda ifodali aks ettirish masalasida muqimdir. Intererining qanday tarzda yoritilganligi qam e'tiborsiz qoldirilmasligi kerak. Chunki u ham kompozitsiya yaxlitligini tasvir aniqligi va qiziqarli chiqishini belgilovchi omillardan biridir. Xona ichidagi barcha buyumlar o'zaro bog'liqlikda yaxlitlik tamoyiliga muvofiq, shu bilan birga, chizuvchiga nisbagan qanday masofada turganiga qarab aniqlik-tiniqlik izchilligida tasvirlanadi.

Intererini chizish ancha murakkab ekanligi ish jarayonida sezilib tursada uni chizish juda qiziqarli mashg'ulotlardan biridir. Chunki u orqali tasviriy san'atda muhim bo'lgan ko'pgina bilimlarni ham nazariy ham amaliy tarzda puxta, atroflicha o'rganib olish imkoniyati bor.

Savollar:

1. Chiziqli va fazoviy perspektivaning tasviri yaratishda tutgap o'rni nimalardan iborat?
2. Intererini tasvirlashda perspektivaning qanday muxim qoidalariga amal qilinadi?

Tayanch tushunchalar:

Voqeaband kompozitsiya - mavzuga asoslangan aqsalikni aks ettiruvchi tasvir, kompozitsiya, asar.

qoralama rasimlar - sinab ko'rish, topish niyatida ishlanadigan, chala bitirish zaruriyati bo'lmagan mashq ishlar.

Kartina tekisligi - mato yoki tasvir chizilayotgan sah, polotno, qog'oz yuzasi.

Koordinat - ma'lum masofalarda belgilab olingan, o'lchami aniqlangan joylar, nuqtalar, (tasvirdagi).

Perpendikulyar - gorizontall tekislikka nisbatan tik chiziq.

Frontal - narsani ikki o'lchamini o'zgarishsiz ko'rinishi.

Tarx - narsa, predmet shakli cheti, chegarasini ifodalovchi chiziq.

6-MA'RUZA.

MAVZU: Inson qomatini chizgilari. Inson qomatini turli vaziyat va xrlatlarda (o'qib o'tirgan, mexnat qilayotgan, tik va suyanib turgan) chizish orqali odam tana a'zolari nisbatlarini chiziqli konstruktiv o'rganish. Kuzatib xrlat xarakterini tez ilg'ab tasvirlash malakalarini o'stirish. Material xoxishiga ko'ra.

REJA:

1. Odamning to'liq gavdasi tasvirini chizishdan avvalgi bosqichni nazariy tomonlari bilan taniqtirish.
2. Chizgilarning, ayniqsa qalamlavhalarning roli haqida uning o'ziga xosliklari to'grisida zarur ma'lumotlarni berish.
3. Inson a'zolarining o'zaro mutanosibliklarini tasvirlash yo'llarini tushuntirish.

Adabiyotlar:

1. Risunok. Izdatelstvo «Iskusstvo» Moskva. 1965. (144-165 betlar).
2. A.P.Bar1shnikov. Perspektiva «Iskusstvo» Moskva. 1955. (77-80 betlar).
3. K.N.Aksenov. Risunok. Moskva «Panorama». 1990 (158-168 betlar).

MAVZUNING MATNI:

Odamning qiyofasini chizish va haqqonil tasvirlash masalasi o'quv jarayonidagi eng murakkab mavzulardandir desak aslo yanglishmaymiz. Chunki bu turkumdagi vazifalarni bajarish uchun avvalgi mashg'ulotlarda' o'rtirilgan ko'pdan-ko'p bilimlar ham qo'l keladi. Agar ular etarli darajada o'rganilmagan bo'lsa har qanday kishi oldida engib o'tish qiyin bo'lgan masalalar ko'ndalang bo'ladi, ish rivojini susaytiradi. Odam qomatining eng muhim qismlari bosh, bo'yin, elka, gavdaning ko'krak sohasi, bel tos hamda yuqori va pastki tayanch harakat a'zolariga bo'linadi. Ularning birgalikda yaxlit ko'rinishini chizishdan avval har birining tuzilishi, shakliga e'tibor berilishi, alohida tezksr chizmalarni chizib mashqlpr qilinishi zarur. Bunday tayyorgprlik bosqichidagi ishlar turli positlprda aks ettirilishn mumkip. Odatda qalamchizmalar uchun yumshoq materiallar, ayniqsa ko'mir qalpmchalari, retush qalami va sanginalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ular bilan ishlaganda iloji boricha o'chirgichdan foydalanmagan ma'qul. Shunga mashq qiliisa aniq ishlashdagi mas'uliyat ancha ortadi, natijada ishonch bilan bexato ishlashga o'rganib boriladi.

Odam tasvirini chizish dastlabki kuzatuvlardan, ya'ni chizilajak ob'ektni har tomonlama tahlil qilib o'rganishdan boshlanadi. Gavda tuzilishidagi o'ziga xosliklar, masalan, bo'y, qaddi-qomatning past yoki balandligi, balki o'rtacha me'zonlarga mosligi aniqlanadi. Shunga muvofiq bosh o'lchamini mezon qilib olib tanaga nisbatan beriladi. Gavdaning egilgan-bukilgan qismlari, odam tamasining o'tirgan yoki tik turganligi, harakatda ekanligi masalalari kuzatilib o'rganiladi. Shundan keyin oldinga qo'yilgan talab, vazifaga ko'ra tasvirni qog'ozda joylashtirish hal etiladi, Tasvir boshlang'ich bosqichda engil-elpi chiziqlar yordamida chiziladi. Unda butun tana bo'yicha o'tkaziladigan 'ish rivojiga yordam beradigan o'q-yordlmchi, simmetrik chiziqlardan foydalaniladi. Asta-sekin tananing turli qismlarining o'lchamlari aniqlshtiriladi. Shuni hlm unutmaslik kerakki, odam qiyofasinya chizishda tananipg sgatik yoki dinamik

holatda ekanligini ko'rsatib bera olish muhim jihatlardan bir hisoblanadi. Buni ijobiy hal etish tashqi ishlarining boshlang'ich bosqichida oq nazorat qilinishi kerak.

Harakat holatini kuchayib aks etishi tananing barcha a'zolarini o'z o'rnida topib to'g'ri tasvirlay olishda namoyon etiladi. Inson tanasining umumiy holatidan qat'iy nazar uning alohida bo'laklarining tasviriga ham e'tibor, beriladi yaxlitlikni tamiilonchi omildir. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tmoq kerakki, tez chiziladigan chizmatasvirlar bitta qog'oz sathida bir nechta lab ishlanishi mumkin. Bunday yo'l tutish har bir holatni o'zaro solishtirib ko'rish, tahlil etish imkonini tug'diradi, Malumki, odam tik turgani, o'tirgani yoki yotgani holatlarida uning tanasi a'zolarini o'lchamlari, o'zaro holati har turli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Yuqorida aytilgan vazifalardagi qiyofani tasvirlash murakkablik darajasi ham turlichadir. Shuning uchun har xil vaziyat va holatlardagi odamlar tasvirini iloji boricha ko'proq ishlab mashq qilinishi maqsadga muvofiq. Ularda konstruktiv qurilish masalalariga, rioya qilinsa, soya-yorug'liklarni ko'rsatishga ortiqcha berilmasdan, chiziqlar qalin, ingichkaligi, plastikligiga, ifodaliligiga e'tibor berilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin. Eng muhimi erinmasdan mehnat qilishni har bir talaba o'z odatiga aylantirishi kerak.

Tayanch tushunchalar

Chizgilar - qisqa muddatlarda ishlanadigan qalamtasvirlar.

Chiziqli konstruktiv - chizilayotgan narsaning ko'rinmaydigan ichki qismlarini ham shartli qilib chiziqlar yordamida ifoda qilish, ular orqali hajmli tasvir taassurotini berish (soya-yorug'ni belgilamagan holda).

Simmetrik - narsa yoki tasvirning ikki qismining bir-biriga aynan o'xshashi, mutanosibligi (muvozanatda ekanligi).

Statik - harakatsiz, turg'un, (holat).

Dinamik - harakatdagi, tez o'zgaruvchan (holat).

7-MARUZA. 2 SOAT.

MAVZU: O'quv qalamtasvir hamda qalamchizgilari bajarishda kompozitsiya asoslari va ijodiy malakalarini rivojlantirish. O'quv qalamtasviri va qalamchizg'ilarning tasvirlash san'atidagi ahamiyati. Inson qomatini tasvirlashda o'quv akademik qalamtasvir bajarish metodlari. O'quv akademik rasm chizishda bosqichma-bosqich usullaridan foydalanish.

REJA

1.Talabalar ijodiy qobiliyatidan ksilib chiqqan qolda ularni faollashtirish.

2.Chizish texnikasini o'rganish tamoyillari orqali tajribasini, nazariy bilimlarini oshirish. Akademik qalamtasvir doirasidan chiqmay haqqoniy tasvirlar ishlash jarayoniga ko'niktirish.

3.Bosqichlar asosida rasm chizish odati shakllantirish yo'llarini nazariy tamoyillarni tushuntirish.

Adabiyotlar:

1. Risunok. Izdatelstvo «Iskusstvo» Moskva. 1965 (15-16, 26-28 betlar).
2. Risunok. Jivopis Kompozitsiya. Moskva. "Prosveidenie» 1989(5-18, 133-141 betlar).
3. K.N.Aksenov. Risunok. Moskva. «Panorama» 1990 (97-168 betlar).

MAVZUNING MATNI:

Tasviriy san'atning barcha turlarida va janrlarida kompozitsiya masalasini hal etish etakchi o'rinlarda turadi, desak yanglishmaymiz. Buni uchun esa har bir san'at tursh a muvofiq tarzda kompozitsiya asoslarini qo'llay bilish ksrak. Shu o'rinda kompozitsiya umumqoidalari puxta o'rganilishi zarur. Ular akademik qalamgasvirlar yaratish, o'rganish, mashq qilish jarayonining ham ajralmas qismidir.

Ma'lumki, inson qomagini chizish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda albatta akademik rasm ishlash amallari qo'llaniladi. U esa oddiydan murakkabga o'tib boish orqali yuzaga chiqariladi. Odam tasviri talabalar, uni endi chizishni o'rganayotganlar uchun ancha murakkab ishdur. Bu sohani nazariy qismini o'qib. o'rganish mashqlar uchui chiziladigan vazifalar sifatini oshirishnish omilidir. Chunki nafaqat yillar, balki asrlar davomida akademik rasm chizish sirlari ochilib, tadqiq etib, takomillashtirilib kelinmoqda. Shundan ma'lumki o'ziga xos, inkor etib bo'lmaydigan tamoyillar, qonun-qoidalar vujudga kelgan. Ularga amal qilinishi ayniqsa o'rganuvchilarga yordam beradigan zo'r omildir.

Odam qomatini to'liq tasvirlash, uning bosh qismini chizish amallari to'liq o'zlashtirilib olingach boshlangani ma'qul. Shunda dastlabki mashqlardan oq etarli samaraga erishish mumkin bo'ladi. Asosiy e'tibor tanani tadqiq etish va tasvirlash ishiga qaragiladi. Ma'lumki inson qaddi-qomatining o'z o'lchamlari, mutanosiblik tamoyillari mavjud. Masalan yosh bola boshining o'lchami tanaga iisbatan jihatdan ancha mutanosiblikda bo'ladi va tanaga, uning balandlik o'lchamiga olti, etti, ba'zan etti yarim karra joylashadi. Albatta bu me'zonlar nisbatan bo'lib turli odamlarda har xillik kasb etadi.

Odam qomatini chizishda uning tuzilishini (konstruktsiyasini) bilish katta ahamiyatga ega. Buning uchun chizuvchi tananing qanday harakat holatida, qay vaziyatda turganligini qoralama chizgilar qilish orqali tahlil qilish, ko'plab shunday mashqlar bajargan, asosiy ishni boshlashi kerak. Chizganda ham qiyofani, uning barcha bo'laklarini alohida-alohida emas, balki yaxlit aks ettirishga urinish, hamda erishish lozim bo'ladi. Ammo har bir bo'lak uning tasvirida tutgan roli Ham unutilmasligi kerak. Turgan odam qiyofasini chizishning asosiy amallari nimalardan iborat, degan savolni oldimizga qo'yib, unga javob beraylik:

Ilgarigi vazifalardagidek bunisida ham dastlabki maqsad ob'ektini qog'oz satHiga chiroyli qilib joylashtirishdan. iboratdir. So'ngra tana turish vaziyati, holati topiladi, keyin qomatning qismlari, o'lchamlari o'zaro mutanosibligi topiladi. Ular odamning keksa yoshligiga, semiz yoki ozg'inligiga, bo'iining past yoki balandligiga bog'liq bo'ladi. Bunda albatta odamning qaysi bir oyog'iga, yoki ikkala oyog'iga gayanib turganligi e'tiborga olinishi muhimdir. Chunki shunga

karab tananing holati o'zgarib turadi. Yelka, bosh, bel. gos. qo'l va oyoqlar turishi har xil ko'rinishga ega bo'ladi. Ma'lumki, odam umurtqa nog'onpsiping |uzilishi ham uning ko'rinishiga ta'sir etadi. Ba'zi tanalariing turishi tik bo'lsa, ba'zilari bukchayibroq kuripishi shundan.

Tananing har bir a'zosi gorizontal va psrtikal chiziqlarga nisbagg.n qamday vaziyatda ekanligi muntazam ravishda tekshirib turiladi. Butun tapaning tayanch nuqtasi mavjud bo'lib, u og'irlik qaysi oyoqqa tushaetganiga, yoki ular oralig'iga tushaotganini aniqlashda qo'l keladi. U to'g'ri, joyida topilmagan bulsa, odam qiyofasi og'ib, yiqilayotganga o'xshab chiqib qolishi mumkin. Shu sababdan tekshirish uchun ba'zan osma shovundan foydalanish mumkin. U barcha perpendikulyarlarni topishda zo'r vositadir.

Odam qiyofasini chizishni o'rganishda uni skelet bilpn solishtirib tekshirish, tananing asosiy mushaklari tizimini Gudon «ekorshesi»dan ko'rib o'rganish maqsadga muvofiq. Ana shunda chizuvchi tpaning qaysi bo'lagiga urg'u berishi va batafsil ishlashi kerakligini gushunishi oson bo'ladi. Chunki suyaklar tizimini belgilovchi skelet va mushaklar tana qismlarining shakli-shamoyilini yaqqol qilib aks ettirishda yordam beradi. Umuman yuqoridagilarni sifatli bajarilishi uchun har bir talaba plastik anatomiyadan yahshi xabardor bo'lishi zarur. Shuni ham takidlash o'rinliki, ishni bajarishda soya-yorug' munosabatlarini go'g'ri topib tasvirlash ham ahamiyat kasb etadi. Chizish mobaynida kztta soyalar va yorug', yarimsoyalarni birvarakay belgilab tuslab borilishi tasvirning hajmli ko'rinishini taminlaydi. Umum tanani aks slgirnshda unipg mayda qismlarini ham yo'l-yo'lakay apiqlashgirib boriladi, ammo bunda yaxliglikka pugur egkazilmaoligi kerak. Tasvirlash jarayoni izchillikda bosqichma-bosqich olib borilsa, oxirida barcha yumondan ish tekshirib umumlashtirilsa vazifa yaxom chiqishi tamiilanadi, ham aytib o'tish kerakki, vazifani tugal holga keltirish tajribaga, yani ko'p, erinmay, sabot bilai ish olib borilishiga bog-liqdir. NazariI bilimlarni o'gmish us!a rassomlari merosini kitoblardan o'qib o'rganish yordamida oshirib borilishi kerak.

Savollar:

1. O'quv qalamtasviri va ijodiy qalamtasvir nimalar bilan farq qiladi?
2. Odam qiefasini chizishda, uning tana skeletini bilishning aHamiyati nimada?
3. «Ekorshe» nima uchun chiziladi?

Tayanch tushunchalar:

O'quv qalamtasvir - o'rganish, mashq qilish niyatida, bir necha bosqichlarga bo'lib olib boriladigan, uzoq muldatda bajariladigan qalamlasvir.

Bosqichma-bosqich - rasm chizii^ni nisbiy tarzda ketma-ketlik asosida olib borish.

Chizish texnikasi - chiziqlarni turlicha ko'rinishlarda ifodali qo'llash, uslub ishlatish. maHoratni qo'llash, turli tasvir vositalari, ashyolaridai foydalanish.

Akademik qalamtasvir - malum qonun-qoidalar, tamoyillarga bo'ysungan Holda bajariladigan puxta qilib ishlapgan (metodik izchillikda) tasvir.

Muvozanat - o'quv natyurmorti yoki kompozitsiya tasvirining qismlari, ranglarning, o'lcham,

shakllarining o'zaro mos kelishi, sath og'irligi mutanosibligi.

Homaki rasm - tez ishlangan tugallanmagan tasvir.

8-MA'RUZA. 4 SOAT.

MAVZU: Pedagogik rasm ishlashning maqsad va vazifalari.

Pedagogik rasm ishlash usullari. Sinf taxtasida bo'r bilan rasm chizish. Pedagogik rasm chizishning o'ziga xos xususiyatlari. Yaxlitlik, oddiylik, soddalashtirish, stilizatsiyalash. Uy ro'zgor buyumlari, ustachilik asboblari (arra, randa, bolta va boshq.) Sinf taxtasida tasvirlanadi. Kiyimdagi inson qomatini turli holatlarda (o'tirgan, kitob o'qiyotgan, tik turgan, mashq qilayotgan) bo'r bilan chiziqli konstruktiv tarzda tasvirlash.

REJA:

1. Talabalarga chizish bo'yicha olgan bilimlarini kelajakdagi faoliyatlari-o'qituvchilik ishlarida qo'llashga o'rgatish va tayyorlash.
2. Nazariya bilan qurollantirish.
3. Tasvirlarni yoshlarga ishlashni tushuntirishda sinf taxtasidan foydalanish amalining ahamiyatini ma'lumotlar asosida o'rgatish.

Adabiyotlar:

1. V.S.Kuzin. Nabroski i zarisoki. Moskva «Prosveshenie» 1981. (14-34, 67-73 betlar).
2. L.E.Terentev. Risunok v pedagogicheskoy praktike uchitelya izobrazitel'nogo iskusstva. Moskva <.Prosvesh,enie» 1981. (3-7, 8-22 betlar).
3. N.P.Kosterin. Uchebnoe risovanie. Moskva. «Prosveidenye» 1984. (10-24 betlar).
4. B.Boymetov. qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar Toshkent 1995. (3-18 betlar).

MAVZUNING MATNI:

Pedagogik rasm chizishning o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, u bolalarga chizish yo'llarini odtsiy, soddalar tarzda tushuntirib berish imkonini beradi. Bunda albatta bosqichma-bosqich ishlash tamoyili ustun turadi. Rasm chizishni mashq qilish darslar hajmsiz, yassi narsalarni tasiirini ishlashdan boshlanadi. Va asta-sekin murakkabroq shaklga ega bo'lgan hajmdor narsalar tasviriga o'tiladi. O'zi yaxshi tasvir ishlashni bilgan o'qituvchi bolalarga o'rgatish yo'llarini ham puxta o'zlashtirib olishi, nazariy jihatdan tushuntira olishi talab etiladi. Bu ish albatta sinf taxtasida bo'r bilan tasvirlar ishlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim masaladir.

Malumki, mutaxassis rassom bo'la turib o'z bilimlarini, tajribasini boshqalarga o'rgatish ishipi udtsalay olmaydiganlar ham bo'ladi. Chunki pedagogik ishnin! o'z qiyinchiliklari ya murakkab tomonlarp mavjud. Ular asosai bolalariing qobiliyatiga mos revishda mashg'uloglarni tashkil qilishda ko'proq ayon bo'ladi. Shu sababdan rasm chizish metodlarini bolalarbop qilib tushuntirib borish unchalik oson ish emas. Buni har bir tarbiyachi-musavvir yaxshi bilishi kerak.

Sinf taxtasida chizib bolalarga ko'rsatish va o'rgatish qulay bo'lgan narsalar asosan uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat bo'ladi. Bu tibbiy holat ularni chizib

o'rganayotganlar uchun qulaydir. Chunki bolalar har doim atrofida ko'rib, kuzatish imkoniyatiga ega bo'lgan narsa va buyumlarni tasvirlash ancha oson bo'ladi. O'qituvchi barcha sodda predmetlarni, o'rtacha qiyinchilikdagi, hamda murakkablarini ham bo'r bilan sinf taxtasida aks epirolishi shart. Shunda ko'rgazmallik tamoyiliga amal qilingan bo'ladi. Aks holda o'rganayotgan bolalar mavzuni, ular oldiga qo'yilgan vazifa talablarni to'liq tushunib etish qiyin kechadi. Ammo sinf taxtasida chizib ko'rsatilayotgan narsaning asli albatta bolalar ko'z o'ngiga namuna qilib qo'yib qo'yilishi zarur. Ular predmetni har tomondan kuzatish, xatto ushlab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lsinlar. To'liq tasavvurga ega bo'lsinlar. Shu jihatdan olgaida bolta, tasha. Randa, arra va shuiga o'xshash narsalarni chizishdan boshlangan ma'qul.

Pedagogik rasm chizishda uning xususiyatlariga amal qilinishi ish samaradorligini ta'minlaydi. Ular tasvirlarni oddiy, sodda, tushunarli qilib aks ettirishdan iboratdir. Shunisi ham ma'lumki sinf taxtasida tasvirlanadigan narsalarning soya erug' qismlarini ko'rsatish nisbiy ko'rinishiga egaligi bilan ajralib turadi. Buni bolalar to'g'ri qabul qilishlari uchun to'g'ri tushunchalar berilishi kerak. Bo'ning chizma izlari qog'ozdagi qalam izlarini bildirishi uqtirilishi zarur. Aks holda chizishni mashq qilayotgan bolalar uning mazmui mohiyatini anglamasliklari extimoli bor. Sinf taxtasida rasm chizib ko'rsatganda albatta qog'oz satxidagidek barcha batafsilliklar aks ettirilmaydi, balki ancha soddalashtirib ko'rsatiladi. Mayda detallarni bo'rda tasvir etish tavsiya etilmaydi.

Sinf taxtasida ayniqsa odam tasvir etilganda uni sxemali. Konstruktiv jihatlarini ko'rsatish kifoya. Chunki bolalar tasvir tuzilishidagi muhim amallarni sodda tasvirlar orqali tez va soz anglab oladilar. Batafsilliklarni esa chizilayotgan ob'ektniig turgam zslidan qarab davom ettiradilar. Odam chizmagasvirini uning turli holatlari (o'tirgan, tik turgzn, kitob o'qiyotgan) orqali tasvir etib ko'rsatilishi, ularning chizmalı-konstruktiv qilib aks ettirilishi maqsadga muvofiq bo'lib, bolalarning har bir tasvirini tushunib ishlashlarini ta'minlovchi omildir.

Savollar:

1. Pedagogik rasm chizishning ahamiyati, maqsad va vazifalari nimalardah iborat?
2. Rasmni sinf dosklsida chizish, mashq qilishning pfealligi nimada?
3. Sinf taxtaspnish rsngi k. anaqa bo'lgani maqul?

Tayanch tushuncholar:

Pedagogik rasm - bmrrovga o'rgatish iiyatida ko'rgazmalı qonun-qoidal.-f asosida. namoyiit ettib chiziladigan namuna tasvir, suratlar.

Stilizatsiyalash - tabiatdan olingan murakkab shaklni soddalashtirib ifoda etish (bezak ko'rinishiga olib kelish) yo'li.

Konstruktiv tarzda - tuzilishini (tasvirni) ichki qurilpl1 bilan tahlil qilish, chizish.

Hajmdor - uch o'lchamli qilib, fazoviy ko'rinishda aks ettirish.

Predmetlar - narsalar.

Detal - bo'lak, qism, unsur, narsaning ma'lum bir chegaradagi joyi (tasvirdagi).

9-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Odam skeletining anatomik tahlili, qalamtasairi qamda qalamchizgilarini bajarish yo'llari. Odam tanasi anatomik tuzilishining qonuniyatlari: suyaklarning shakli va ko'rinishlari hamda ularning inson tanasining qayishuvchanlik qarakatidagi o'rni.

REJA:

- 1.Odamning tasvirini ishlashda tepa skeletining muhim ekanligini tushuntirish.
2. Skelet tarkibidagi suyaklari nomlari, xususiyatlari bilan tanishtirish.
3. Chizish jarayonida o'ynaydigan roli mo'hiyashni uqtirish.
4. Plastik anayumiya mo'hiyatini tushunshirish.

Adabiyotlar:

1. K.N.Aksenon. Risunok. Moskva. «Panorama» 1990. (140-154 betlar).
2. Risunok. Izdatelstvo «Iskusstvo». Moskva 1965 (144-216 betlar).
3. E.Barchai. Anatomiya dlya xudojnikov. Budapeil 1970 (3-100 betlar).

MAVZUNING MATNI:

Odam g'dvdasining rasmini chizish boshqa narsalarning rasmini chizishga qaraganda ancha murakkabdir. Chunki odam rasmi tasvirlanganda uning faqat tashqi qiyofasi emas, balki ichki xis tuyg'ulari, kayfiyati, turish yoki o'tirish qolatlari ham ifoda etiladi. Odam qalamtasviri ishlanganda avvalo uning gavda tuzilishi batafsil o'rganilishi kerak.

Ma'lumki, skelet bosh suyak, gavda, qo'l va oyoq suyaklaridan iborat. Skeletni o'rganishda kalla suyagining xomaki rasmini tana qismi bilan uzaro bog'lab chizishning roli kapzdir. Skeletni turli holatlarda, turli tomoilardan turib tasvirlash yaxshi natijalar berishi ma'lum.

Odam taiasi suyak skeletining muhim bo'lagi bo'lgan bosh chanog'i to'g'risida avvalgi ma'ruzalarda batafsil ma'lumot berilganligi sababli. endi tananing boshqa qismlari suyaklari tizimi ustida to'xtalib o'taylik. Ularga qo'l, gavda, oyoq skeleti suyaklari kiradi. qo'l skeleti elka suyagi, bilak suyagi, bilakning nur suyagi, skeletning kaft qismi suyaklari, barmoqlar qatori yuqorisining to'rtta suyagi, barmoqlar qatorining pastki to'rtta suyagi, barmoq suyaklari va falangalardan iboratdir. Oyoq skeleti esa tos qismi suyaklari, krestets, son suyagi, tizza usti, katta boldir suyagi, kichik boldir suyagi, oyoq kafti suyaklaridan iborat. Gavdaning skeletida ham bir qator suyaklar mavjud, ular umurtqa pog'onasi tizimi, umrov (klyuchitsa) suyaklari. kurak, ko'krak, umurtqalar, qovurg'alar, tos, dumg'aza (krestets) suyaklarini o'z tarkibiga oladi. Odam skeletini uning mushaklari bilan uzniy holda bog'lab o'rganish kerak. Chunki insonning qilgan harakatlarining barcha o'ziga xos xususiyatlari ularning fiziologiyasiga bog'liq bo'ladi. Ayrim kishilarda suyaklar nozik ingichka, boshqalaridan baquvvat, yo'g'on, ingichka

ko'rinishga ega bo'ladi. Bularning hammasi o'z navbatida odamning tasvirini chizishda ahamiyat kasb etadi. qiziqarli yoki qiziqarli emaslikni vujudga keltiradi. Chizish uchun dastlabki mashqlar jarayonida o'zgin, suyaklari bo'rtib turgan odamni chizish maqsad qilib qo'yilishining ma'nosi ham shundan deyishimiz mumkin. Chunki skelet chizib puxta o'rnatilgan odamning yalong'och tanasini chizishga o'tilgach yuqoridagi aytib o'tilgan ko'rinishdagi qiyofachini aks ettiruvchi mashqlarni ko'p marta bajarish samarali bo'ladi.

Odam skelet tizimini o'rganish jarayonida uning tasvirini har tomondan chizib mashq qilinishi kerak. Ularning to'g'ridan va yonidan, shuningdek orqa tomondan aks ettiriladigan uch xil vaziyatini bitta qogoz sathida iloji boricha aniq-yon ishlansa, ularning har bir suyagini solishtirib, o'lchamlariga do'vur aniqlashtirib va muvofiqlashtirib tasvirlashning imkoniyati bo'ladi. Skeletni chizayotganda o'rganuvchi ko'z oldiga odam tanasining mushaklari aks ettirilgan namuna chizma-ko'rgazma suratning mavjud bo'lishi muvaffaqiyatni to'liq ta'minlashiga yordam beruvchi omildir. Suyaklarni chizish davrida ularning shakl-shamoyiliga ahamiyat berish, iloji boricha Hajm xususiyatlarini xdm soya-yorug'larni belgilab ko'rsatish talab etiladi. Ana shunda skeletning quruq chizmasi, shartli ko'rinishi emas, balki hajmli, fazoviy muhitdagi tasvirini aks ettirish mumkin.

Ma'lumki, inson tanasini tasvirlashda shartli ravishda tayanch nuqtalari deb ataluvchi joylarni belgilab olish muhimdir. Ular esa suyaklar birikadigan erlardadir. Shunday tayanch nuqtalarining eng muhimlari skeletni chizish jarayonida ham topilib, aniq belgilansa yomon bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, inson tanasini chizishda asosiy, asosiy masalalar bo'lmaydi, o'qish-o'rganish jarayonining barcha tomonlari puxta o'zlashtirilishi, buning uchun ko'pi mehnat qilinishi darkor. Suyaklar tizimini o'rganish ham kolajakda bo'lajak ps-dagog-rassomlarning ish faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishuvlarining garovidir.

Savollar:

1. Inson qomatini tasvirlashda odam skeletini anatomik tahlili.

2. Odam skeleti asosiy suyaklarining nomlarini aytib bering.

3. Horijiy rassom-pedagoglarning odam plastik anatomiyasiga oid adabiyotlarini mutolaa qiling,

Tayanch tushunchalar:

Anatomik tahlil - odam tanasi azolarini ham ichki (skeleti) ham tashqi (mushaklari) tomondan, o'lchami va shakl tuzilishlarini o'rganish, chizib mashq qilish.

Qalamtasvir - qalamda ishlanadigan tasviriy ish.

Qayishuvchanlik - tasvirdagi shakllarning o'zaro uykunligi, tasirchanligi va egiluvchanligi (chiziqlarni)

Skelet - inson suyaklari majmui, tizimi.

Tayanch nuqtalari - suyaklar birikkan joylar, (og'irlik mikdori tushadigan, tashqi tomondan aniq ko'rinib turadigan, tasvir ishlash jarayonida shaklni belgilashda aHymiyat kasb etadigan nisbiy nuqtalar).

10-MA'RUZA. 4 SOAT.

MAVZU: Odam gavdasi shzkliniig taxdili. Odam gavdasining kayishuvchanlik anatomiyasi hamda uning nisbatlari. Odam anatomiyasi tuzilishining ilmiy asoslari. Harakatdagi odam gavdasinyng shakllari (yugurish, sakrash, mehnat jarayoni va boshk.)

REJA:

1.Odam tasvirini chizishdai avvalgi o'quv-mashq jarayonlarining muhim tomonlari bilan tanishtirish.

2.Qayishuvchanlik anatomiyasining odam ko'rinishini tasvirlashdagi o'rnini belgilovchi asosiy masalalar echimi bilai qurollantirish.

3. Inson harakatda bo'lgan holatlarni tasvirlashning yo'llari bilan tanishtirish.

Adabiyotlar:

1. Risunok. Izdagelstvo «Iskusstvo». Moskva. 1965. (216-234 betlar).
2. E.Barchai. Anatomiya dG'Ya xudojnikov. Budapesht. 1970 (50-70 betlar).
3. Risuiok. Jivopis Komiozitsiya. Moskva. «Prosveshenie» 1989. (5-18 betlar).

MAVZUNING MATNI

Ilgari maruzalardan qisman malumki odam shaklini, tanasiii chizishda uning skslstiii, yani suyaklar tizimIni va mushpklar tizimmpi ham nazariy (har bir bo'lak pomini sdlab, o'rganib) ham amaliy (shaklini mashqlar asosida chizib) bilishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun ma'ruzalarimizda aytib o'tilganlardan tashqari qo'shimcha maxsus o'quv adabiyotlariga murojaat etilishi ksarak. Aks holda bu murakkab sohani o'zlashtirish qiyin. Biz avval skelet va mushaklar tizimiga qisman to'xtalib o'tganimiz uchun aytilmagan tomonlarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Ularning eng muHimi, inson qiyofasini ko'riiishini belgilovchi mushaklpr tizimining ayrim bo'laklari nomlarini keltirib o'tamiz. Ular 40 ga yaqin bo'lib, eng asosiylerining nomi quyidagichzdir: trapstsiyasimon muskul, ko'krakning katta mushagi, elkaning keng mushagi, oldingi tishsimon mushak, tashqi egri mushak, uning pay cho'zilmasi (apopsvroz), qorinning to'g'ri muskuli, piramidal mushak, «pax» bog'lami (qorinning tashqi egri mushagining paylari chegarasi), deltasimon mushak, elkaning ikkiboshli muskuli, elka mushagi, elka-bilak

mushagi, kaftning uzun mushagi, bilakning barmoqlarni bukuvchisi va boshqalari (ular maxsus tablitsa-ko'rgazmalari qurollaridan o'qib olinsa yaxshi). Shuningdek, tos qanoti-bel mushagi, tojsimoi mushak, uzun keltiruvchi mushak, tikuvchilar (portnyajnaya) muskuli, ingichka (nozik) mushak, to'rtboshli mushak, to'rtboshli mushakning paylari davomi (gizza usti bog'lami), oldingi boldir mushagi, uning paylari va h.k.

Bu yuqorida keltirib o'tilganlari tananing asosiy qismlarini o'z ichiga olgan turgal mushaklardir, ularning bosh qismidagi bo'limlarini nomini ilgarigi darslarda ko'rib o'tilganimiz sababli Hozir sanab o'tganimiz yo'q.

Odam tasvirini o'rganishda uning gurlil Holatlarda va harakatlarda bo'lgan vaziyatlarini chizish yaxshi sharoit beradi. Buning uchun har bir qiyofani o'ziga xos bo'lgan belgilarni topish va anglab etilishi kerak. Ular odamning bo'y-basti, semiz-ozg'inligi, mushakdorligi, suyaklarining yo'g'on yoki nozik-ingichkaligida namoyon bo'lib turadi.

Aytilganlarning ustiga chizilayotgan inson tanasining egilib-bukilganligi, qanday harakat holatida turganligi qo'shiladi. Shularning bari tananing plastik qayishuvchanligini, xususiyatini belgilashi bilan ajralib turadi. Inson qiyofasi, tana tasvirining o'xshatib tasvirlash har bir rasm chizishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan kishining bosh maqsadi desak yanglishmaymiz. Chunki o'quv jarayonining boshidan oxirigacha barcha bosqichlarining nihoyasi odam tasvirini ishlash bilan yakunlanadi. Uni qanday sifat darajasida o'zlashtirish esa har bir talabaning o'ziga, intilishi, mehnatiga, quntiga bog'liq.

Savollar:

1. Plastik anatomiya deganda nimani tushunasiz?
2. Odam tanasini chizishda plastik anatomiyaning ahamiyati uning qanday jihaglarini namoyon etishda ko'rinadi.
3. Inson tanasini tasvirlashda uning mushaklari tuzilishini bilish qanday sifatga ega?

Tayanch tushunchalar:

Odam anatomiyasi - inson azolari qismlari (skelet, mushaklar va boshq.) tuzilishi va fiziologik xususiyatlarini ilmiy, amaliy jihatdan o'rganadigan soha, fan.

Tablitsa - biror narsani tushuntirish (ko'rgazmali qilib) uchun tayyorlangan chizma. jadval, yozuvli izohli ko'rgazma qurol.